



## ZAMONAVIY TANKLAR, ULARNI JANGOVAR HARAKATLARDA QO‘LLASH TAJRIBALARI VA SAMARADORLIGI

*ABDULLAEV Umarbek Ibragimovich,*

*podpolkovnik, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti  
Qurollanish va otish kafedrasida tank bo‘linmalari otish tayyorgarligi sikli katta  
o‘qituvchisi;*

*RAVSHANOV Sadridin Sayfiddin o‘g‘li,*

*Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti kursanti.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada muallif xorijiy davlatlar armiyalarida mavjud eng zamonaviy tanklar va ularni hozirgi kunda jangovar harakatlarda qo‘llash tajribalari to‘g‘risida ma’lumotlar bergan.*

**Kalit so‘zlar:** *Tank, o‘t ochishni boshqarish tizimi, ishonchli zirh, yuqori manyovr, silliq stvolli pushka, faol himoya tizimi, uzoq masofaga otish, ko‘rinishi cheklangan sharoit.*

**Аннотация.** *В данной статье автор даёт информации о современных танках находящихся в зарубежных странах и опыт их применения в современных боевых действиях.*

**Ключевые слова:** *Танк, системы управления огнём, надёжная броня, высокая маневренность, гладкоствольная пушка, система активной защиты, стрельба на большие дальности, условия ограниченной видимости.*

**Abstract.** *In this article, the author gives information about modern tanks located in foreign countries and again their use in modern combat operations.*

**Keywords:** *Tank, fire control system, reliable armor, high maneuverability, smoothbore gun, active protection system, long-range shooting, limited visibility conditions.*



Tank quruqlikdagi qo‘shinlarning asosiy zarba beruvchi kuchi hisoblanib, u yuqori harakatlanuvchanligi va o‘tuvchanligi, barcha zamonaviy zarba beruvchi vositalardan himoyalanganligi va qudratli qurollarini qo‘llashi bilan har xil turdagi otish vazifalarini bajarishga qodirdir.

Bundan yuz yildan ortiqroq oldingi davrda jang maydonida birinchi tanklar paydo bo‘lgan edi va butun yigirmanchi asr davomidagi asosiy qurolli to‘qnashuvlarning xotimasini belgilab bergan. Kimning tankining yaxshi zirhli ximoyasi, qudratliroq to‘pi va tanklarining soni ko‘p bo‘lsa, o‘sha eng kuchli hisoblangan. Hozirgi kunda tankga qarshi vositalar juda ko‘p bo‘lsa ham, tanklar xanuzgacha quruqlikdagi qo‘shinlarning asosiy zarba kuchi bo‘lib qolmoqda.

Hozirda tanklar ko‘plab mamlakatlarning quruqlikdagi kuchlaridagi asosiy elementlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu jangovar mashina yuqori manyovr, kuchli qurollanishga va ishonchli zirh himoyasiga ega. Quyida tanklarning eng zamonaviy modellarini ko‘rib chiqaylik.

T-14 «Армата» tanki (Rossiya Federatsiyasi)

Asosiy qurol: 125 mm 2A82-1M silliq stvulli pushka.

Himoya: “Afganit” faol himoya kompleksi, ko‘p qatlamli zirh, nisbiy himoya.

Xususiyatlari: To‘liq raqamli boshqaruv tizimi, boshqaruvchisiz bashnya, uch a‘zoli ekipaj (1-rasm).



1-rasm. T-14 «Армата» tanki



M1A2 Abrams tanki (AQSh)

Asosiy qurol: 120 mm M256 silliq stvolli pushka.

Himoya: “Trophy” faol himoya tizimi, kompozit zirh.

Xususiyatlari: yuqori manyovrchanlik, ergonomika va ishonchliligi (2-rasm).



2-rasm. M1A2 Abrams tanki

Leopard 2A7+ tanki (Germaniya)

Asosiy qurol: 120 mm Rheinmetall L55 silliq stvolli pushka.

Himoya: modulli zirh, dushmanga ta'sir tizimlari.

Xususiyatlari: yuqori tezlik, samarali yo'naltirish tizimi va o't ochishni boshqarish tizimlari (3-rasm).



3-rasm. Leopard 2A7+ tanki

Type 99 tanki (Xitoy)

Asosiy qurol: 125 mm silliq stvolli pushka.

Himoya: kompozit zirh, aktiv va passiv himoya tizimlari.

Xususiyatlari: zamonaviy boshqaruv tizimlari, samarali dvigatel, turli jangovar sharoitlarga moslashtirilgan (4-rasm).



4-rasm. Type 99 tanki

Challenger 2 tanki (Vеликобритания)

Asosiy qurol: 120 mm L30A1 silliq stvolli pushka.

Mudofaa: maxsus “Chobham” zirh, dushmanga ta'sir tizimlari.



5-rasm. Challenger 2 tanki



Xususiyatlari: yuqori darajadagi himoya, ishonchlilik va chidamlilik (5-rasm).

Zamonaviy tanklarning imkoniyatlari:

1. Jangovar harakatlar sharoitlarga moslashuvchanlik:

Tanklarning aksariyati modulli zirhli tizimlar bilan jihozlangan bo'lib, bu tahdidga qarab himoya darajasini o'zgartirish imkonini beradi.

2. Raqamli texnologiya: zamonaviy tanklar jangovar axborot tizimlari bilan birlashtirilgan bo'lib, jang maydonida tezkor ma'lumotlar almashish imkonini beradi.

3. Uzoqqa va aniq o't ochishi: zamonaviy yo'naltirish va o't ochishni boshqarish tizimlari tufayli tanklar yuqori aniqlik bilan uzoq masofalardagi nishonlarga zarba berishi mumkin.

4. Ko'p vazifali: tanklar bevosita jangovar harakatlarda ishtirok etishdan tashqari, piyodalarni qo'llab-quvvatlash, inshootlarni yakson qilish va boshqa funksiyalarni bajarishi mumkin.

### **JANGOVAR HARAKATLARDA QO'LLASH**

Bugungi kunda harbiy siyosiy vaziyat tez o'zgaruvchan bo'lib, davlatlar (harbiy tashkilot va davlatlar) orasida ziddiyatning keskinlashuvi, tomonlarning iqtisodiy va mafkuraviy kurashlarini tobora jiddiylashishi, dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Bu esa o'z navbatida davlatlar qurolli kuchlarning qo'shinlarining yuqori jangovar shay holatda ushlab turishni va intensiv jangovar tayyorgarlik bilan shug'ullanishini talab etadi.

Hozirgi vaqtda Rossiya - Ukraina, Isroil - Falastin mojarolarida ham tank qurollarining barcha imkoniyatlarini ishga solib dushman tomonga maksimal darajada talofat yetkazishmoqda, xususan tank bo'linmalarning uzoq masofaga va ko'rinishi cheklangan sharoitda qo'llanilishi buning yaqqol dalilidir.

Rossiya va Ukraina misolida mavzuning qisqacha tahliliga o'tsak. Xorijiy harbiy tahlilchilar fikriga ko'ra, mojaroning dastlabki bosqichida har ikkala tomon tanklar bo'yicha katta yo'qotishlarga duch kelgan, shu sababli mudofaani yorib kirish uchun



to'g'ridan to'g'ri to'qnashuvlarga tanklarni qo'llanilishi kuzatilmayotgani aytib o'tilgan, buning o'rniga ko'proq o't ochib madad berish maqsadida foydalanilmoqda.

Bugungi kunda Rossiya o'z tanklarini uzoq masofa va ko'rinishi cheklangan sharoitda otishga jalb qilmoqda, bunda otishning aniqligini oshirish uchun dron va smartfon (planshet)lar yaqindan yordam bermoqda. Ilgari uzoq masofaga va ko'rinishi cheklangan sharoitda otishda tank pushkalarini yo'naltirish uchun artilleriyachilarning bussol qurilmasi va tegishli hisob-kitoblar zarur bo'lgan bo'lsa, hozirda telefon ilovasidagi maxsus kalkulyator va oflayn xaritadan foydalanilmoqda.

Uzoq masofaga va ko'rinishi cheklangan sharoitda otishda dronlar tomonidan snaryadlarning portlashi orqali korrektirovka qilinmoqda.

Xurmatli anjuman ishtirokchilari qisqacha mavzuga oid faktlarga e'tibor bersak:

Rossiya qo'shinlari 2022-yil kuzida Xerson yo'nalishida mudofaaga o'tganda T-90 tanklari bilan qurollangan rotasi yordamida uzoq masofaga ko'rinishi cheklangan sharoitda Ukraina Qurolli Kuchlari mudofaasining old chizig'iga 8 kilometr chamasi uzoqligida bir nechta oskolka-fugasli snaryadi bilan zarba berib dushmanni chekinishiga majbur qilgan.

Yana bir holatda tan olinmagan Lugansk xalq respublikasi armiyasi olib borgan jangovar harakatlarda, dala komandirlari tomonidan ishlab chiqilgan taktikaga asosan tanklar vzvod, rota tarkibida dushman old chizig'idan 9-10 kilometr gacha bo'lgan uzoqlikda pana joylarga joylashtirilib, artilleriya o'rniga dushmanni bostirish uchun qo'llanilgan. Harbiy ekspertlarning fikriga ko'ra tank ekipajlari dron va oddiy planshetlardan foydalangan, ya'ni dron razvedka va korrektirovkachi vazifasini bajargan bo'lsa, planshet maxsus kiritilgan dastur asosida hisob-kitoblarni amalga oshirishda qo'l kelgan.



Ukraina Qurolli Kuchlari tomonidan qo‘lanilgan yana bir yangilik tanklarni aloxida qo‘llagan tarzda razvedka zarba amaliyoti (6-rasm).

Razvedka zarba kompleksining tarkibi:

-tank ekipaji bilan+radiostansiya;

-korrektirovshik+planshet+

radiostansiya;

-kvadratokopter boshqaruvchisi (pilot) bilan + radiostansiya;

Ilgari hozirgi davrdan farqli o‘laroq, uzoq masofaga va ko‘rinishi cheklangan sharoitda tankdan otishga 3-4 kishilik guruh tayinlangan bo‘lib, ularning vazifasi otish uchun dastlabki ma’lumotlarni tayyorlash va otishni korrektirovka qilish bo‘lgan.

Uzoq masofaga va ko‘rinishi cheklangan sharoitda otish uchun quyidagilar amalga oshirilgan:

otish pozitsiyasini tanlash, tayyorlash va uni egallash;

otishga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga oshirish.

### **Otishga tayyorgarlik ko‘rish**

tanklar otish pozitsiyasiga joylashgandan keyin vzvod darhol otishga tayyorgarlik ko‘radi, bunda;

tanklar jangovar holatga keltiriladi;


asosiy yo‘nalish bo‘yicha parallel veyer tanlanadi (tanklarning asosiy burchak o‘lchovlari aniqlanadi);

eng kam sath o‘lchanadi (aniqlanadi);

barcha tanklardan nazorat nuqtasiga mo‘ljallashni belgilash amalga oshiriladi;

artilleriya shtabi guruhi, otish pozitsiyasi bilan aloqa o‘rnatadi;

o‘q-dorilar otishga tayyorlanadi va zaryad harorati o‘lchanadi.



6-rasm. Razvedka zarba kompleksi

## **XULOSA**



**Birinchi**dan – hozirgi vaqtda dushman mudofaasini yorib kirish uchun tanklar deyarli qo‘llanilmayapti, ko‘p holatlarda o‘t ochib madad berish maqsadida, xususan uzoq masofalardan o‘t ochishga jalb qilinmoqda.

**Ikkinchi**dan – uzoq masofalarga va ko‘rinishi cheklangan sharoitda otishning aniqligini oshirish uchun dron va smartfon (planshet)lardan samarali foydalanilmoqda.

**Uchinchi**dan – ilgari uzoq masofalarga va ko‘rinishi cheklangan sharoitda otishda tank pushkalarini yo‘naltirish uchun artilleriyachilarning bussol qurilmasi va tegishli hisob-kitoblar zarur bo‘lgan bo‘lsa, hozirda telefon ilovasidagi maxsus kalkulyator va oflayn xaritadan foydalanilmoqda.

**To‘rtinchi**dan - tanklarni uzoq masofalarga va ko‘rinishi cheklangan sharoitda otib vazifalarni bajarishga jalb qilish iqtisodiy jixatdan qimmatga tushadi (tank pushkasi stvolining yashovchanlik resursi (OF-300) ko‘p emas va snaryadlarni ishlab chiqarish tan narxining qiymati yuqori).

**Beshinchi**dan – tankchi bo‘linmalari juda zarur vaziyatlarda uzoq masofalarga va ko‘rinishi cheklangan sharoitda o‘t otish vazifalarini bajarishga jalb qilinishi mumkin, lekin ular bunga tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lishi kerak.

### TAKLIF

Tank bo‘linmalarining uzoq masofalarga va ko‘rinishi cheklangan sharoitda otishda, otish natijalarini o‘rganish, taqqoslash, umumlashtirish va tahlil qilish orqali to‘plangan materiallar asosida tanklarning uzoq masofalarga va ko‘rinishi cheklangan sharoitda otishini keyinchalik jangovar tayyorgarlik o‘quv jarayoniga tadbiiq qilish to‘g‘risida maqsadga muvofiq qaror qabul qilish uchun maxsus komissiya tarkibini tayinlash.

Istiqbolda tanklar uzoq masofalarga va ko‘rinishi cheklangan sharoitlarda otishga jalb qilinganda uning aniqligi va samaradorligini oshirish uchun dron, smartfon (planshet)lar va maxsus ilovalardan foydalanish bo‘yicha o‘qitish maqsadga muvofiq.

### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Zirhli tank qurol texnikalarini jangovar qobilyatini rivojlantirish to'g'risidagi yo'riqnoma". Toshkent-2019 y.

2. Tanklardan yopiq otish pozitsiyalaridan uzoq masofalarga otish (yo'riqnoma).  
/-Ch.: Chirchiq OTQMBY.-2023.

3. Internet saytlari "Ukraina-Rossiya" dagi harbiy operasiyalar tahlili.

4. [http://nvo.ng.ru/armament/2009-09-11/1\\_bespilotniki.html](http://nvo.ng.ru/armament/2009-09-11/1_bespilotniki.html);

5. <http://topwar.ru/123-bespilotnyj-prismotr-za-kontinentami.html>;

6. [http://ru.wikipedia.org/wiki/MQ-1\\_Predator](http://ru.wikipedia.org/wiki/MQ-1_Predator);

7. [http://ru.wikipedia.org/wiki/Tadiran\\_Mastiff](http://ru.wikipedia.org/wiki/Tadiran_Mastiff).